

YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MA'NAVIYATINI OSHIRISHDA O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATINING O'RNI

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI
"Maqom xonandaligi" kafedراسi v.b dotsenti
Mamatqulov Maxamadjon Mamasadikovich*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek milliy maqom san'atining tarixiy rivojlanishi, shakllanishi va hozirgi zamon talablari bilan bog'liq masalalar yoritiladi. Maqomlar, Sharq musiqasining muhim qismi bo'lib, ularning o'ziga xos tarixi va shakllanishi XX asrning o'rtalariga kelib o'zgarishlarga duchor bo'lgan. Shashmaqom, Xorazm maqomlari va boshqa maqom tizimlarining rivojlanishi, ular o'zbek milliy musiqasining bebaho merosi sifatida qadrlanadi. Maqolada ilmiy tadqiqotlar, notalashtirish va maqom san'atining jahon miqyosida tanilishi bilan bog'liq yangiliklar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Maqom san'ati, Shashmaqom, O'zbek milliy musiqasi, Musiqiy meros, Maqamshunoslik, Ijro usullari, Musiqiy tarix, Notalashtirish, Musiqqa madaniyati, Ilmiy tadqiqotlar;*

This article explores the historical development, formation, and contemporary issues of Uzbek national maqom music. Maqom, an essential part of Eastern music, has undergone significant changes by the mid-20th century. Shashmaqom, Khorezm maqoms, and other maqom systems are cherished as priceless elements of Uzbek national music. The article examines scientific research, notation practices, and the global recognition of maqom art.

Keywords: *Maqam Art, Shashmaqom, Uzbek National Music, Musical Heritage, Maqam Studies, Performance Techniques, Musical History, Notation, Music Culture, Scientific Research;*

Аннотация: *в данной статье рассматривается историческое развитие, формирование и современные проблемы узбекского национального макамого искусства. Макам, важная часть восточной музыки, претерпел значительные изменения к середине XX века. Шахмаком, хорезмские макамы и другие системы макама ценятся как бесценное наследие узбекской национальной музыки. В статье рассматриваются научные исследования, практика нотирования и международное признание макамого искусства.*

Ключевые слова: *Искусство макам, Шахмаком, Узбекская национальная музыка, Музыкальное наследие, Макамознание, Исполнительские*

методы, Музыкальная история, Нотная запись, Музыкальная культура, Научные исследования;

KIRISH:

Maqom so'zi, o'zbek xalqining musiqiy merosining ajralmas bir qismi sifatida, o'zining chuqur ma'nosi va tarixi bilan bugungi kunda yangicha qarashlarni talab etmoqda. Maqom san'ati, Sharq musiqasining asosiy janri sifatida, o'zining o'ziga xos tuzilishi va ijro uslubi bilan butun dunyo musiqiy merosining bebaho qismidir. Ushbu san'at turi asrlar davomida shakllanib, o'zbek milliy musiqasining yorqin namunasiga aylangan. Maqomlar, o'zbek va tojik xalqlari uchun nafaqat musiqiy ifoda, balki milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida qadrlanadi. Bugungi kunda esa maqom ijrochiligiga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan O'zbekistonda milliy merosimizni asrab-avaylash va rivojlantirish borasida katta qadamlar qo'yilmoqda. Ayniqsa, maqom san'atining yosh avlodga etkazilishi, uni chuqur o'rganish va rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2017-yil 17 noyabrda imzolangan "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror maqom san'atining yangi bosqichda rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Mazkur qaror, maqom san'atining ijro usullarini chuqur o'rganish, uning o'ziga xos maktablarini rivojlantirish va "oltin fond"ini yaratish, shuningdek, xalqaro miqyosda targ'ib qilishni nazarda tutadi. Bu qarorlar maqom ijrochiligiga yanada yuksak e'tibor va ilmiy asoslangan yondoshuvlarni taqdim etmoqda. Bundan tashqari, Prezident tomonidan 2018-yil 28 noyabrda imzolangan "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori respublikada olib borilayotgan ma'naviy va ma'rifiy islohotlarning yuksalishiga hissa qo'shmoqda. Ushbu qaror asosan milliy merosni saqlash va rivojlantirishga, yosh avlodning ma'naviyatini shakllantirishga, va eng muhimi, maqom ijrochiligining xalqaro maydonda tan olinishi va ravnaq topishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan "Ilhom" jamoat fondi, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi, hamda Farg'ona mintaqaviy filiali kabi tashkilotlar o'zining ijobiy samaralarini ko'rsatmoqda. 2018-yildan boshlab Shahrisabz shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san'ati festivali o'tkazilishi, bu an'anani rivojlantirishda muhim qadam bo'lib, mamlakatimizdagi maqom ijrochiligi sohasida yangi istiqbollarni ochmoqda. Bu festivallar maqom san'atining nafaqat o'zbek, balki butun dunyo madaniyatida keng tan olinishi, yosh ijrochilarni qo'llab-quvvatlash, va maqomni

yangi avlodga etkazish kabi maqsadlarni ko'zlaydi. Shunday qilib, maqom san'ati bugungi kunda nafaqat xalqimiz, balki butun jahon musiqiy madaniyati uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu an'anaviy san'atning yangilanishi va rivojlanishi milliy musiqamizni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Maqom so'zining tarixi va mazmuni musiqashunoslikda keng o'rganilgan va turli ilmiy tadqiqotlar doirasida chuqur tahlil qilingan. Dastlab, maqom (arab. "makan" — joy, o'rin) so'zi torli cholg'u asboblarning dastasida barmoq bilan bosiladigan parda yoki balandlikni ifodalovchi atama sifatida ishlatilgan. Keyinchalik, Sharq musiqasining nazariyati rivojlanib borar ekan, maqomning mazmuni kengayib, o'zi bilan bog'liq boshqa musiqiy tushunchalarni ham o'z ichiga olgan. Maqomlarning rivojlanish jarayonida ularning musiqiy strukturasi va tizimlari o'zgarib, har bir regionda o'ziga xos nom va shakllarga ega bo'ldi. Masalan, o'zbek va tojik xalqlarida "maqom", uyg'urlarda "muqom", Ozarbayjonda "mug'om", arablarda va turklarda "maqam", Eronning musiqiy an'anasida esa "dastgoh" deb ataladi. Hind musiqasida maqomning muqobili "raga" deb yuritiladi. Maqomlarning ilmiy farazlarga ko'ra, VII asrda yashagan mashhur musiqashunos Borbad Marvaziy tomonidan shakllana boshlaganligi taxmin qilinadi. Borbad, dastlabki maqom tizimlarini ishlab chiqishda va ularga musiqiy nazariy asoslarni kiritishda katta rol o'ynagan shaxs sifatida tanilgan. Uning ilmiy va ijrochi yondoshuvlari, maqomlar tizimining tarixi va rivojlanishida muhim iz qoldirdi. Bu davrda maqomlar butun Sharq musiqasida tizimli ravishda tarqalib, ularning asosiy janrlari va shakllari shakllanib, butun Islom olamida keng tarqaldi. IX asrda shakllanib borayotgan maqom tizimi, xususan, "Duvozdaxmaqom" — o'n ikki maqom tizimi, ilmiy-tarixiy manbalarda o'zining o'rni va ahamiyatini topdi. Duvozdaxmaqom, o'zining tizimli va o'ziga xos strukturasi ega bo'lib, uning tarkibidagi maqomlar va o'zgarimas musiqiy shakllar musiqashunoslarning asosiy tadqiqot mavzularidan biri bo'lgan. Maqomlarning xilma-xilligi va o'zgarimas strukturasi o'zbek musiqasida ham dolzarb ahamiyat kasb etgan. O'zbek maqomlari Shashmaqom kabi yirik tizimlarni o'z ichiga oladi, u XVIII asr o'rtalarida shakllangan va o'zbek va tojik xalqlari uchun bebaho musiqiy meros sifatida qadrlanadi. Is'hoq Rajabov, Shashmaqomning ilmiy izlanishlariga asos solgan va uning tarixiy rivojlanishini chuqur tahlil etgan olim sifatida maqomshunoslikda muhim o'rin tutadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI Maqomshunoslikda notalashtirish jarayoni, ayniqsa XIX asr oxirlarida katta ahamiyat kasb etdi. Xorazm maqomlarini notaga olishda Komil Xorazmiy tomonidan ixtiro qilingan "Xorazm tanbur chizig'i" musiqaning notaviy yozuvini tashkil qilishda yangi bosqichni boshlab berdi. Bu

ishlarning natijasida maqomlarning asliyatini saqlab qolish va ularni kelajak avlodlarga yetkazish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, 1950-yillarda Viktor Mixaylovich Belyayev tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlanmalar va yozuvlar, o'zbek maqomlarining notalash jarayonini yanada rivojlantirib, xalqaro miqyosda tanilishiga imkon yaratdi. Yunus Rajabiy, o'zining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan maqomshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Uning Shashmaqomning notalashtirilgan shakllarini ishlab chiqishdagi mehnati, maqom san'atining ilmiy asoslarini mustahkamladi. Shuningdek, Yunus Rajabiy tomonidan tayyorlangan "Buxoro maqomlari" nomli asar, maqomshunoslikda yangi bir bosqichni boshlab berdi va o'zbek milliy musiqasining "oltin fond"iga aylanib, jahon miqyosida tanilishiga zamin yaratdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Zamonaviy maqomshunoslikda, maqomlarni notalash va ularni ilmiy-tadqiqotlar asosida o'rganishdan tashqari, maqomlarning ijro uslublarini saqlash va rivojlantirish masalasi ham katta e'tiborga olinmoqda. Buning uchun ilmiy yondoshuvlar va metodologik usullarni qo'llash zarur. Maqomlarning notali va eshinish shakllarini chuqur o'rganish, musiqiy tizimlarning nazariy jihatlarini tahlil qilish orqali maqomlarning haqiqiy mohiyatini anglash mumkin.

Shuningdek, zamonaviy maqomshunoslikda maqomlarni o'rganish faqat musiqiy shakllar va uslublar bilan cheklanmay, balki ularning madaniy, tarixiy va etnografik aspektlarini ham o'z ichiga oladi. Maqomlarning ijrosi nafaqat musiqiy, balki ruhiy va falsafiy ma'no ham kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, maqom san'ati inson ruhi va ma'naviyatini shakllantiruvchi muhim san'at turi sifatida qaraladi. Bunday tahlillarni olib borishda, musiqaning nafaqat texnik jihatlarini, balki uning ma'naviy va madaniy kontekstini o'rganish ham zarurdir.

Bundan tashqari, maqomlarning xalqaro miqyosda tan olinishi, ularning global madaniyatda o'z o'rnini topishi uchun ilmiy yondoshuvlar va strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Shashmaqomning YUNESKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi" deb tan olinishi, bu san'atning jahon miqyosidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Maqom san'atining ilmiy asoslangan tadqiqotlari, nafaqat o'zbek, balki butun dunyo xalqlari musiqiy madaniyatiga katta hissa qo'shadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR: Bunday yondashuv, maqom san'atining o'ziga xosliklarini saqlab qolish, uni kelajak avlodlarga etkazish va global miqyosda tanitish uchun zarur bo'lgan metodologik asoslarni yaratadi. Maqomshunoslik sohasidagi tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar orqali o'zbek milliy maqom san'ati yangi bir bosqichga ko'tarilmoqda va dunyo musiqasida o'z o'rnini topmoqda.

Maqom san'ati nafaqat ijrochi mahoratni, balki chuqur ilmiy yondashuvni ham talab qiladi. Shashmaqom va Xorazm maqomlarining o'ziga xos uslubi va tarixi, ularning nota shaklida yozilishi jarayonida ko'p mehnat va tadqiqotlar amalga oshirildi. O'zbekiston mustaqillik yillarida maqom san'ati yanada rivojlandi, uning global miqyosda tan olinishi esa mustahkamlanib boradi. Shashmaqomning YUNESKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi" deb tan olinishi, bu san'atning kelajagi uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi. Bugungi kunda o'zbek maqom san'ati yangi bosqichga o'tmoqda, uning ilmiy va ijro jihatlari yanada rivojlanib, jahonda tanilmoqda. O'zbekiston milliy maqom san'atining rivojlanishi, bu san'atni global miqyosda keng targ'ib qilish uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264 son "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori
3. Avliyoqulov N.X, Musayeva N.N. "Yangi pedagogic texnologiyalar" darslik
4. N.A.Muslimov "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" o'quvslubiy majmua. Toshkent: 2016.
5. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963
6. Rajabov Y. Shashmaqom, (I-VI); O'bek xalq muzikasi.(I-V) Tos'hkent. 1965
7. Yunusov R. S'harq xalqlari maqomlari T.,2022
8. Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макомы Т.,2006